



# IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



**VOL.3 № 5**

**2026**

## **O'ZBEK XALQ MAQOLLARIDA MILLIY-MADANIY BELGILARNING IFODALANISHI**

**Aripova Mahliyo Norboy qizi**

Jizzax davlat pedagogika universiteti, tayanch doktorant

### **Annotatsiya**

Mazkur maqolada paremiologik birliklarining milliy-madaniy belgilari, ularning lingvistik manbalari hamda lingvomadaniy xususiyatlari tahlil qilinadi. Xalq iboralari, maqollar, etnomadaniy leksemalar va obrazli ifodalar asosida milliy tafakkur, turmush tarzi va madaniy qadriyatlarining til tizimida aks etishi yoritiladi. Ayniqsa, *ilon*, *chilla*, *do'ppi*, *palov* kabi leksemalar misolida til birliklarining obrazli asoslari va madaniy komponentlari izohlanadi. Shuningdek, xalq iboralari hamda paremiologik birliklar tarkibidagi milliy konseptlarning semantik va madaniy mohiyati ochib beriladi.

**Kalit so'zlar:** Lingvokulturologiya, milliy-madaniy belgi, etnomadaniyat, paremiologiya, xalq iboralari, obrazli asos, konsept, maqol, paremiologik birliklari, madaniy komponent.

## **ВЫРАЖЕНИЕ НАЦИОНАЛЬНО-КУЛЬТУРНЫХ ОСОБЕННОСТЕЙ В УЗБЕКСКИХ НАРОДНЫХ ПОСЛОВИЦАХ**

**Арипова Махлиё Норбой кизи**

Джизакский государственный педагогический университет, базовый докторант

### **Аннотация**

В данной статье анализируются национально-культурные особенности языковых единиц, их лингвистические источники и лингвокультурологические характеристики. На основе народных выражений, пословиц, этнокультурных лексем и образных средств раскрывается отражение национального мышления, образа жизни и культурных ценностей в языковой системе. В частности, на примере таких лексем, как *ilon*, *chilla*, *do'ppi*, *palov*, объясняются образные основы и культурные компоненты языковых единиц. Также раскрывается семантическая и культурная сущность национальных концептов, содержащихся в народных выражениях и паремиологических единицах.

**Ключевые слова:** Лингвокультурология, национально-культурный признак, этнокультура, паремиология, народные выражения, образная основа, концепт, пословица, языковые единицы, культурный компонент.

## **EXPRESSION OF NATIONAL-CULTURAL FEATURES IN UZBEK FOLK PROVERBS**

**Aripova Mahliyo Norboy qizi**

Jizzakh State Pedagogical University, Doctoral student

### **Abstract**

This article analyzes the national-cultural features of language units, their linguistic sources, and linguoculturological characteristics. The reflection of national thinking, lifestyle, and cultural values in the language system is revealed through folk expressions, proverbs, ethnocultural lexemes, and figurative expressions. In particular, the figurative bases and cultural components of language units are explained through such lexemes as *ilon*, *chilla*, *do'ppi*, and *palov*. The semantic and cultural essence of national concepts embodied in folk expressions and paremiological units is also discussed.

**Keywords:** Linguoculturology, national-cultural feature, ethnoculture, paremiology, folk expressions, figurative basis, concept, proverb, language units, cultural component.

Bugungi tilshunoslikda til va madaniyat munosabatlarini o'rganish dolzarb ilmiy yo'nalishlardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Til nafaqat aloqa vositasi, balki xalqning tarixiy xotirasi, madaniyati, urf-odati, dunyoqarashi va milliy tafakkurining ham ifodachisidir. Shu bois paremiologik birliklar tarkibida aks etgan milliy-madaniy belgilarni tadqiq etish lingvokulturologiyaning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Har bir xalqning hayot tarzi, tarixiy tajribasi va ijtimoiy-madaniy qarashlari til birliklarida o'z ifodasini topadi. Ayniqsa, paremiologik birliklar — xalq maqollari, matallar va iboralar — hamda etnomadaniy leksemalarda milliy mentalitetning yorqin namunalari mujassamlashgan bo'ladi. Shu jihatdan qaraganda, paremiologik birliklarning milliy-madaniy asoslarini aniqlash nafaqat tilshunoslik, balki etnografiya, madaniyatshunoslik va folklorshunoslik uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur maqolada paremiologik birliklarning milliy-madaniy belgilari va ularning lingvistik manbalari xalq maqol va iboralari misolida tahlil qilinadi.

### **Paremiologik birliklarning milliy-madaniy asoslari**

Paremiologik birliklarning milliy-madaniy xususiyatlarini tadqiq etishda, eng avvalo, ularning lingvistik manbalarini aniqlash zarur. Chunki har qanday paremiologik birlik muayyan xalqning tarixiy tajribasi, yashash tarzi va dunyoqarashi bilan chambarchas bog'liq holda shakllanadi.

#### **1. Obrazli asos va uning milliy tafakkurdagi o'rni**

Paremiologik birliklarning yaratilishida obrazli asos muhim ahamiyat kasb etadi. Obrazlilik xalq tafakkurining mahsuli sifatida voqelikni badiiy va ta'sirchan shaklda ifodalash imkonini beradi. Bu o'rinda birgina **ilon** leksemasini olaylik. U tilimizda "sudralib yuruvchi, oyoqsiz, tanasi ingichka va uzun, ko'zlari shaffof qovoqlar bilan qoplangan jonivor" [1, 198-b.] nomini ifodalaydi. Mazkur leksema asosida xalq tafakkurida turli obrazli ifodalar yuzaga kelgan.

"Yer tagida ilon qimirlasa biladi" iborasi bunga misol bo'la oladi. Ushbu iboraning yuzaga kelishiga xalqning kundalik kuzatuvlari asos bo'lgan. Kishining aqlli, ziyrak, sezgir ekanligini tavsiflash uchun o'sha odamga nisbatan "yer tagida ilon qimirlasa biladi" iborasi ishlatiladi [2, 58-b.]. Chunki ilonning harakatini sezish murakkab bo'lib, bunday nozik holatni ilg'ash faqat sezgir kishiga xos deb qaralgan.

Shuningdek, **ilon** leksemasi salbiy xarakterdagi kishilarni ifodalashda ham faol qo'llaniladi. Xalq maqollarida bu leksema zarar yetkazuvchi, yomon niyatli insonlarga nisbatan obrazli asos bo'lib xizmat qiladi:

Ilon ilonning quyrug'ini bosmas.

Ilon ishi — zahar solmoq.

Ilonga hech kim bag'ridan joy bermas.

Ilondan ehson tilama [3, 197-b.].

Mazkur maqollarda ilon obrazi orqali insonlarning salbiy xulq-atvori va jamiyatdagi zararli xarakterlar umumlashtirilgan.

#### **2. Muayyan etnosotsium bilan bog'langan, kundalik hayotda sinovdan o'tgan bilimlarning o'ziga xos fragmenti**

Paremiologik birliklarning milliy-madaniy belgilarini shakllantiruvchi omillardan biri etnosotsium bilan bog'liq kundalik tajribalardir. Xalq uzoq yillar davomida kuzatgan hayotiy hodisalarni til birliklari orqali umumlashtirib kelgan. Shunday birliklardan biri **chilla** leksemasidir. Ushbu so'z fors tilidan kirib kelgan bo'lib, "qirq kun" ma'nosini anglatadi.

Masalan, bola tug'ilganidan, qiz turmushga chiqqanidan, yigit uylanganidan, marhum ko'milgan kunidan keyingi qirq kunlik davrga tegishli, shuningdek, yoz va qish fasllaridagi chilla davriga daxldor ko'pgina ibora va paremiologik birliklar tilimizda yaratilgan va ular kundalik tarixiy hayotda faol qo'llangan. O'zbek xalqining turmush tarzida chilla tushunchasi alohida madaniy va ma'naviy ahamiyat kasb etadi.

Masalan: yoz chillasi, qish chillasi, chilla o'tirmoq, chilla yara. Mazkur birliklar xalqning fasllar bilan bog'liq kuzatuvlari, diniy-tasavvufiy qarashlari hamda kundalik hayot tajribalarini o'zida mujassamlashtirgan. Yoz chillasi — 25-iyundan 5-avgustgacha bo'lgan eng issiq davr; qish chillasi — 25-dekabrda 5-fevralgacha bo'lgan eng sovuq davr; chilla o'tirmoq — so'fiylik tariqatida qirq kun davomida uydan chiqmasdan yolg'izlikda toat-ibodat qilmoq; chilla yara — bolaga chilla davrida chiqadigan yara-toshmaning nomi kabi xalq iboralari bunga lisoniy dalil bo'la oladi.

Xalq maqollarida ham ayni til hodisasi mavjud:

Chilla kirsas — chil oyog'i.

Chillasi suv — tilla suvi.

Chillada sug'orilgan bog', chil botmon uzum berar.

Chillaning qori ketsa ham, muzi ketmas [4, 141-b.].

#### **3. Muayyan etnosotsium turmush tarzi bilan o'zaro bog'langan so'z-realiyalar**

Muayyan xalq turmush tarzi bilan bog'liq bo'lgan ayrim so'zlar boshqa tillarda to'liq ekvivalentga ega bo'lmaydi. Bunday birliklar milliy realiyalar sifatida baholanadi. Milliy taom nomlari ham bunday birliklarga misol bo'la oladi. O'zbek xalqining milliy taomlari bilan bog'liq leksemalar xalq madaniyatining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Xususan, **qurtova** va **palov** kabi birliklar milliy koloritni yaqqol ifodalaydi.

**Qurtova** — xalq shevasida **qurtoba** — qurut yoki suzmani qaynatilgan suvda ezib

tayyorlanadigan, ayronidan quyuq parhez ovqat, milliy taom [5, 384-b.]. Mazkur leksema xalq maqollarida ham uchraydi: **Qurtovaning davosi — qaynoq suv**. Bu maqolda xalqning turmush tajribasi va taom bilan bogʻliq amaliy qarashlari ifodalangan.

**Palov** esa oʻzbek milliy oshxonasining eng mashhur taomi sanaladi. Mazkur leksema aslida fors tilidan kirib kelgan boʻlib, u asosiy masalligʻi guruch, yogʻ, goʻsht va sabzidan iborat, qovurib, qaynatib va damlab tayyorlanadigan quyuq ovqat nomini ifodalaydi [6, 210-b.]. Uning sinonimi — **osh**. Mazkur milliy taomning xilma-xil nomlari bor boʻlib, ular respublikamizning ayrim hududlarida keng tarqalgan. Masalan, samovar palov — oldindan ivitib qoʻyilgan guruchdan tayyorlangan palov; xalta palov — guruchi alohida xaltada suvda qaynatib pishirib olingan palov; qovurma palov — masalligʻi obdon qovurilib, guruchi ivitmay tayyorlanadigan palov. Shuningdek, noʻxat palov, mayizli palov singari turlari ham shular jumlasidandir.

Palov xalq hayotida nafaqat oziq-ovqat, balki mehmondoʻstlik, birlik va marosim ramzi sifatida ham muhim oʻrin tutadi. Palov toʻy-hasham, bayram, mehmondorchilik va marosimlarning ajralmas qismi hisoblanadi. Xalq ijodida palov bilan bogʻliq koʻplab maqollar yaratilgan:

Palov desa payshanbaga, doʻlma desa dushanbaga.

Palov yesang moyi bilan, yoʻrgʻa minsang toyi bilan.

Palovning qamchisi — choy.

Shuningdek, **osh** leksemasi ham palovning sinonimi sifatida xalq maqollarida faol qoʻllaniladi:

Osh — mehmon bilan aziz.

Osh qolsa tansiq boʻlar, ish qolsa sassiq boʻlar.

Osh kelsa — yegin, soʻz kelsa — degin.

Mazkur maqollar xalqimizning mehmondoʻstlik, mehnatsevarlik va turmush madaniyatini aks ettiradi.

#### **Milliy kiyim nomlari va madaniy identifikatsiya**

**Doʻppi** — oʻzbek xalqining milliy bosh kiyimi sifatida nafaqat kiyim elementi, balki milliy gʻurur va identifikatsiya timsoli hamdir. Doʻppi avra-astarli, koʻpincha qavima, pilta urilgan, tepasi kigiz va jiyakdan tarkib topadigan, guldor yoki gulsiz, toʻgarak yoki toʻrtburchak shaklidagi bosh kiyim [7, 676-b.] sifatida milliy kiyimlardan biri sanaladi. Doʻppi bilan bogʻliq xalq iboralari va maqollar tilimizda keng tarqalgan:

Bosh omon boʻlsa, doʻppi topilar.

Doʻppisini osmonga otmoq.

Doʻppisi yarimta.

Doʻppining tagida odam bor [8, 139-b.].

Mazkur iboralarda insonning ruhiy holati, quvonchi, tashvishi yoki yashirin maqsadi obrazli tarzda ifodalangan. Oʻzbekiston xalq shoiri Erkin Vohidov ham “Oʻzbekim” qasidasida doʻppi obrazini milliy iftixor ramzi sifatida tasvirlaydi:

“Qayga bormay boshda doʻppim,

Gʻoz yurarman gerdayib,

Olam uzra nomi ketgan

Oʻzbekiston, oʻzbekim” [8, 41-b.].

Mazkur misralarda doʻppi milliy oʻzlik va gʻururning poetik timsoliga aylangan.

#### **4. Xalq iboralari va paremiologik birliklar asosidagi madaniy konseptlar**

Xalq iboralari va paremiologik birliklarda **lafzda turmoq, nomusi yoʻqolmoq, ilm olmoq, iymoni komil boʻlmoq, taqdirga tan bermok** kabi madaniy konseptlar faol namoyon boʻladi. Ayrim lisoniy matnlarni solishtiramiz:

Ibora: **lafzida turmoq** — ahdini saqlamoq, subutli, bir soʻzli boʻlmoq.

Maqol: **Lafz — puldan qimmat**.

Ibora: **nomusi yoʻqolmoq** — sharmanda-sharmisor boʻlmoq.

Maqollar:

Nomus — yarim oʻlim.

Nomus oʻlimdan qattiq.

Nomusni yoshlikdan asra.

Nomussiz yurmakdan nomusli oʻlmak yaxshi.

Ibora: **ilm olmoq — nina bilan quduq qazimoq**.

Maqollar:

Ilm — tubsiz quduq.  
Ilm — xazina, bilim — daflina.  
Ilm — aql bulogʻi, aql — yashash chirogʻi.  
Ilm — amali bilan, vaʼda — vafosi bilan.

Paremiologik birliklar tarkibidagi obrazli asosning milliy-madaniy belgiga ega ekanligini, ulardagi madaniy komponentlarning mavjudligini aniqlash va tegishli mexanizmini ishlab chiqish vazifasi bugungi tilshunosligimizda dolzarb hisoblanadi.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, paremiologik birliklar xalqning tarixiy tajribasi, dunyoqarashi va madaniy qadriyatlarini oʻzida mujassamlashtiruvchi muhim vosita hisoblanadi. Paremiologik birliklar — xalq iboralari, maqollari kabi birliklar — hamda etnomadaniy leksemalar tarkibida milliy tafakkur, urf-odat va turmush tarzi yorqin namoyon boʻladi. Maqolada tahlil qilingan **ilon, chilla, doʻppi, palov** kabi leksemalar oʻzbek xalqining milliy-madaniy xususiyatlarini ifodalovchi muhim birliklar sifatida baholanadi. Ular nafaqat lugʻaviy maʼnoga, balki chuqur madaniy semantikaga ham ega. Shuningdek, xalq iboralari va paremiologik birliklar tarkibidagi **nomus, lafz, ilm** kabi konseptlar xalqning maʼnaviy qadriyatlari va axloqiy meʼyorlarini aks ettiradi. Demak, paremiologik birliklar tarkibidagi obrazli asos va madaniy komponentlarni aniqlash, ularning lingvomadaniy mohiyatini ochib berish bugungi tilshunoslikning dolzarb vazifalaridan biridir.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI**

1. Oʻzbek tilining izohli lugʻati. — Toshkent: “Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2006.
2. Shomaqsudov Sh., Dolimov S. Qayroqi soʻzlar (xalq iboralari). — Toshkent, 2011.
3. Oʻzbek xalq maqollari. I jild. — Toshkent: Fan nashriyoti, 1987.
4. Oʻzbek xalq maqollari. II jild. — Toshkent: Fan nashriyoti, 1987.
5. Oʻzbek tilining izohli lugʻati. — Toshkent: “Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2006.
6. Oʻzbek tilining izohli lugʻati. — Toshkent: “Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2006.
7. Oʻzbek tilining izohli lugʻati. — Toshkent: “Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2006.
8. Oʻzbek xalq maqollari. I jild. — Toshkent: Fan nashriyoti, 1987.
9. Vohidov E. Oʻzbekim: sheʼrlar. — Toshkent: “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi, 2005.